

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA INSONIYLIK TARANNUMI

**Djumaniyazova Nasiba**

*UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,  
modernfilolog@mail.ru,*

**Baxtiyorova Gulshoda**

*UrDU talabasi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Asqar Mahkam she'riyatida insoniy tuyg'ular, ijodkorning haqiqiy inson haqidagi qarashlari, shoir ijodining kelajak avlod yoshlari ta'lim-tarbiyasi hamda ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni tadqiq qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *she'riyat, insoniylik, adabiyot, fikr, so'z, iymon, dunyo, ruhiyat, ma'naviyat.*

She'riyat inson ruhiyatini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. She'riyat bilan oshno bo'lganlar, uning sarchashmalaridan bahramand bo'lar ekanlar, ma'naviy xazina egalariga aylanadilar. Ana shunday beqiyos ijod namunalarini yaratgan ijodkorlardan biri Asqar Mahkamdir. U yoniq she'riyati bilan kitobxonlar ko'nglidan joy oldi. Chunki uning ijodi inson ruhiyatini yuksaltirishga, hidoyatga chorchash kabi xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan. Ijodkor she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, shoirning biz yashab turgan dunyo haqidagi qarashlari va insoniy fazilatlarni ulug'lash, yomon illatlardan saqlanish haqidagi fikrlari yaraq etib ko'zga tashlanadi. Bu esa kelajak avlod tarbiyasi uchun muhim tayanch vazifasini bajaradi. She'riyat\_shoir ma'naviyati, botiniy olamining ko'zgusi. She'r malhamdir. U hasta, yarali qalblarga davodir. U\_ozor topgan ruhning madori. Haqiqiy she'rxon\_ ko'ngilchan odam. Ko'ngilchanlik esa iymonning basalomatligidan darak beradi. O'tgan asrning oxirlarida Asqar Mahkamning iqtidor-u salohiyatiga dalil\_ "Haq" degan kitobi nashrdan chiqariladi. Asqar Mahkamning "Haq" va "Analhaq" to'plamlari adabiyotimizning benazir xazinasidir. Kitobxon bu kitoblarni o'qish mobaynida ijodkor mumtoz adabiyotimizni, diniy ilmlarni qanchalik darajada chuqur egallaganligini bilib olishi mumkin.

Yelkasiga bir chopon tashlab bu dunyoning doridan "She'r men uchun qismatning o'zi edi", deya o'tgan Asqar Mahkam Vatanni, xudosi bor, ammo erki yo'q qullarning ozodligi va bandiligini she'rga singdiradi. Ana shu so'qmoqlarda ijodkor tog'-u toshdan, gul-u tuproqdan hikmat qidiradi. Zaminda ungan har bir ne'mat shoir nazdida bir hadisdir. Ijodkorning

qalbidagi tug‘yonlar uning she‘rlariga shunday singib ketganki, bu jo‘shqinlik va uryonlar she‘rxon qalbiga borib uriladi.

Asqar Mahkam so‘z qadrini biladigan, undan mahorat bilan foydalana oladigan shoirdir. So‘z ijodkor uchun aziz bo‘lgan. U bir she‘rida so‘z haqida shunday ajoyib satrlar yozadi:

Va payg‘ambar Rahmat tog‘ida  
tinglamoqda ilohiy vahiy.  
Butun olam ahlin og‘zida  
“Iqro bismi Robbikal-lazii!...”  
Qiyomatga qadar shu xullas  
g‘ov bo‘lolmas hech kim yo‘lida  
So‘z o‘lmaydi! O‘ldirib bo‘lmas!...

Asqar Mahkam yuqoridagi she‘rida so‘zning sehri, qudrati va mo‘tabarligini nihoyatda ta‘sirli qilib ifodalaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga vahiy\_ Allohning o‘z suygan bandalari diliga solgani so‘z vositasida kelgani bejizga emas. Keyingi satrda isate‘dodli shoir Qur‘oni karimdan oyat ham keltirib o‘tadi. Qiyomatga qadar so‘z o‘lmasligini, hech kim, hech narsa so‘zning yo‘lida g‘ov bo‘la olmasligini ta‘kidlab, hattoki so‘zning joni ham xuddi bandalari kabi Alloh qo‘lida ekanligini yozadi. Haqiqatan ham, so‘z qudrati insonni har ko‘yga soladi.

Masalan, g‘amgin insonga yaxshi so‘z aytsak, uning kayfiyati ko‘tariladi. Yomon so‘z aytsak, xafa bo‘ladi. Alloh birgina Kun so‘zi orqali o‘n sakkiz ming olam-u butun insoniyatni, qurt-qumursqa, havonot olami, parranda-yu darrandalarni, o‘simlik dunyosini, tog‘- u toshlarni, dengiz-u daryolarni, tuproqni va yetti qavat osmonni yaratdi.

Shoir insoniylikning asl belgisi sifatida iymonni e‘tirof etadi. Iymonli bo‘lgan inson sofdil, mehribon, sadoqatli, vatanparvar, rotgo‘y, adolatli, saxiy bo‘ladi. Birgina shu iymon degan tushuncha qancha-qancha ezgu xislatlarni o‘zida jam qilmaydi deysiz.

...Iymon sotilganda bozor qolmasdi,  
Benomus qolmasdi, beor qolmasdi...  
Bir zumda sotilib eski o‘liklar  
Keyinroq o‘lganga mozor qolmasdi.

Asqar Mahkam yuqoridagi misralarda agar iymon yo‘qolsa, insoniyatda uning zarrasi ham qolmasa, bashariyat qanday parokandalikka yuz tutishini aks ettiradi. Agar iymon sotilganda edi, bozor qolmasdi. Chunki barcha halol yo‘l bilan oldi-sotdi qilmay, talon-taroj qiluvchilar, o‘zgalar moliga ko‘z olaytiradiganlar, harom molni farzandlariga ravo ko‘radiganlar ko‘payardi. Agar iymon sotilganda edi, uni sotib olgan inson or-nomusli bo‘larmidi,

benomus, beor insonlar bo'lmasmidi bu dunyoda. Agar iymon sotilganda edi, uni sotganlar "sharofati" bilan eski o'liklar yotgan qabristonlar sotilib, hattoki keyinroq o'lganlarga mozorlikka yer ham qolmasdi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bizning boshqa mavjudotlardan farqli bo'lishimiz sababi, inson deb atalmish nomga munosib qilib turadigan jihatimiz, ya'ni bizning insoniyligimiz iymondir.

Asqar Mahkam o'zining otashin satrlari ila she'rxon qalbini larzaga soladi. Uning she'riyati yovuzlikka qarshi kurashishga, ezgulikka intilishga, bu dunyoning o'tkinchi hoy-u havaslariga emas, balki yaxshi amallar qilishga chorlaydi. Insoniyatni ziyo tomon ergashtiradi. Yoshlarning toza ruh egalari bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Asqar Mahkam ijodi bir gulshan bo'lsa, bu gulshanda insoniylik gullarining muattar hidlari dimog'imizni chog' qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Olim Toshboyev. Haq oshig'i\_Asqar Mahkam.2020-y.  
Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. -Toshkent. 2006-y.  
[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) onlayn kutubxonasi.